
E'TIBOR



E'tibor

Ta'kidlash lozim, Respublikamizda jazo muddatini o'tab qaytgan fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. So'x tumani hokimligi huzuridagi ijtimoiy ko'nikma markazi, tuman BKM hamda "Mahalla" xayriya jamoat fondi bilan hamkorligida ham ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar e'tirof etishga loyiq.

Bugun hokimligi huzuridagi ijtimoiy ko'nikma markazi va "Mahalla" xayriya jamoat fondi bilan hamkorlikda So'x tumani Mulgon qishlog'ida yashovchi, jazo muddatini o'tab qaytgan Toshmamat Mirzoboyev xonadoniga borib, uning holidan xabar olishdi.

Tuman hokimligi huzuridagi ijtimoiy ko'nikma markaziy komissiyasi tomonidan mazkur holat ko'rib chiqib, markaz tomonidan 1 485 000 (bir million to'rt yuz sakson besh ming) so'm miqdorida moddiy yordam puli hamda oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-12-30 17:03:36